NEOKONSERVATIV YO‘NALISHDAGI “AQL MARKAZLAR” FAOLIYATINING ASOSIY YO‘NALISHLARI

Turayev Abrar Saloxiddinovich
Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti,
Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: maqolada AQShdagi neokonservativ yo‘nalishdagi “aql markazlari”ning shakllanishi, rivojlanishi va faoliyatining asosiy yo‘nalishlari tahlil qilingan bo‘lib, ularning mafkuraviy targ‘ibot, siyosiy lobbi va tashqi siyosatni shakllantirish orqali AQShning global yetakchiligini mustahkamlashga xizmat qilishi yoritiladi. Shuningdek, maqolada neokonservativ “aql markazlar”ning ilmiy, siyosiy va mafkuraviy funksiyalari, ularning global xavfsizlik, Yaqin Sharq siyosati va milliy xavfsizlikdagi ta’siri yoritilgan.

Kalit so‘zlar: neokonservatizm, “aql markazlari”, “AQSh tashqi siyosati, mafkuraviy targ‘ibot, siyosiy lobbi, global xavfsizlik, Yaqin Sharq, ekspertizaning siyosiylashtirilishi.

AQShda faoliyat yuritayotgan tahlil markazlar soni dunyoning boshqa davlatlari bilan solishtirganda ancha ko‘p bo‘lib, turli manbalardagi baholarga ko‘ra, ularning umumiy soni 1500 dan 2500 gacha yetadi. AQSh siyosatshunoslari ushbu holatga hazil aralash tarzda munosabat bildirar ekan, “foreign” (xorijiy), “international” (xalqaro), “strategic” (strategik), “global”, “research” (tadqiqot), “policy” (siyosat), “center” (markaz), “institute” (institut) va “council” (kengash) kabi so‘zlardan istalgan kombinatsiyani tanlash orqali hamisha shu nomdagi biror AQShdagi tahliliy markazni topish mumkinligini ta’kidlaydilar. Bu esa mamlakatda tahlil markazlar faoliyatining qamrovi va diversifikatsiyasi yuqori darajada ekanligini anglatadi[1]. Ularning ayrimlari va aytish mumkinki, kuchli ta’sirga ega bo‘lganlari muayyan siyosiy-mafkuraviy yo‘nalishga moyilligi bilan ajralib turadi. Xususan, AQShdgi neokonservatizm mafkurasi bilan.

Neokonservativ “aql markazlari”ning shakllanishi AQShning ichki mafkuraviy o‘zgarishlari va tashqi siyosatdagi ambitsiyalari bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu institutlar XX asr oxiri va XXI asr boshlarida AQSh tashqi siyosatida qabul qilingan eng keskin va bahsli qarorlarning mafkuraviy asosini yaratdi. Ularning faoliyati natijasida “aql markazlari” siyosiy jarayonlardagi o‘rnini sezilarli darajada mustahkamladi va bu jarayon ilmiy doiralarda “ekspertizaning siyosiylashuvi” (politicization of expertise) deb ataladi[2]. Ya’ni, ekspert bilimining obyektiv ilmiy tahlildan siyosiy maqsadlar va qarashlar bilan bog‘langan holga o‘tishini anglatadi. Bu holatda ekspert tavsiyalari siyosiy elitalarning oldindan belgilangan siyosat yo‘nalishlarini qo‘llab-quvvatlash yoki partiyaviy manfaatlarni ilgari surish uchun shakllantirilishi mumkin, bu esa ekspertizaning mustaqilligi va obyektivligiga ta’sir qiladi.

AQShda neokonservativ yo‘nalishdagi “aql markazlar”ning shakllanishi va rivojlanishi XX asrning ikkinchi yarmida ro‘y bergan mafkuraviy siljishlar va geosiyosiy o‘zgarishlar bilan chambarchas bog‘liq. Xususan, neokonservativ “aql markazlar”ning shakllanishining dastlabki bosqichi 1970-yillarga to‘g‘ri keladi. Mazkur davrga kelib siyosiy-mafkuraviy oqim sifatida to‘liq shakllandi. Ushbu guruh vakillari milliy mudofaa salohiyatining kuchaytirilishi, erkin bozor iqtisodiyotining ustuvorligi va G‘arb demokratik qadriyatlarning butun dunyoga tarqalishini strategik maqsad sifatida ilgari surdilar. Ular, ayniqsa, AQShning global yetakchilik rolini mustahkamlash zarurligini qat’iy himoya qilganlar. Mazkur mafkuraviy o‘zgarishlar o‘z ifodasini mustaqil intellektual va siyosiy ta’sirga ega bo‘lgan “aql markazlar” orqali topdi va neokonservativ g‘oyalarni himoya qiluvchi ilk “aql markazlar” paydo bo‘ldi. Jumladan, konservativ iqtisodiy siyosatni ilgari surgan va keyinchalik neokonservativ tashqi siyosatni qo‘llab-quvvatlagan Amerika tadbirkorlik instituti (American Enterprise Institute, AEI) va Meros jamg‘armasini (The Heritage Foundationlar) aytish mumkin. Ushbu tahlil markazlari vaqt o‘tishi bilan sof ilmiy-tadqiqot faoliyatidan tashqariga chiqib, siyosiy qarorlar qabul qilinishiga bevosita ta’sir ko‘rsata oladigan institutlarga aylandi. Ular siyosatchilar uchun muhim siyosiy tavsiyalar ishlab chiqish bilan birga lobbichilik faoliyati orqali muayyan kun tartibining ilgari surilishiga ham xizmat qildi.

1970-yillardan boshlab targ‘ibotchi tarafkashlik yo‘nalishidagi tahlil markazlari (advocacy think tanks) yangi nazariy g‘oyalarni ishlab chiqishdan ko‘ra, mavjud mafkuraviy yondashuvlarni ommaga yetkazish, ularni siyosiy kontekstga moslashtirish va strategik tarzda ilgari surishga alohida e’tibor bera boshladi. Boshqacha aytganda, bu institutlar nazariy innovatsiyalardan ko‘ra mavjud mafkuraviy tamoyillarni qayta ishlash va ularni siyosiy “bozor”ga marketing uslublarida taqdim etishni asosiy faoliyat yo‘nalishi sifatida belgilab oldi. Tahlilchi D.Abelson bu holatni sharhlar ekan, targ‘ibotga yo‘naltirilgan tahlil markazlari bilan an’anaviy manfaat guruhlari o‘rtasidagi farqlar tobora xiralashib borayotganiga e’tibor qaratadi. Uning fikricha, bu tendensiya natijasida tahlil markazlarining asosiy vazifasi bo‘lgan xolis va ilmiy asoslangan siyosiy maslahatlar berish faoliyati bilan siyosiy lobbichilik, mafkuraviy targ‘ibot va muayyan manfaatlarni ilgari surish o‘rtasidagi chegara tobora noaniq tus olmoqda [3]. Natijada, ayrim tahlil markazlari o‘z faoliyatida mustaqil ekspertiza yuritishdan ko‘ra ma’lum mafkuraviy pozitsiyalarni siyosiy muhokama maydoniga olib chiqish va ularni faol ilgari surishga urg‘u beruvchi institutlar sifatida shakllanib bormoqda. Bu holat ularning ilmiy-tahliliy vazifasidan chekinib, tobora ko‘proq siyosiy va mafkuraviy aktorlar sifatida ishtirok etayotganini ko‘rsatadi.

R.Reygan (1981-1989) va kichik Jorj Bush (2001-2009) prezidentlik davrida Yangi Amerika asri loyihasi (PNAC) va Amerika tadbirkorlik instituti (AEI) kabi neokonservativ yo‘nalishga ega tahlil markazlari Respublikachilar partiyasining asosiy mafkuraviy platformasiga aylanishga muvaffaq bo‘ldi. Ushbu institutlar siyosiy qarorlar ishlab chiqilishida muayyan darajada ishtirok etib, konservativ g‘oyalarning davlat siyosatiga tatbiq etilishida muhim rol o‘ynadi. Bu jarayon ilmiy doiralarda tahlil markazlarining siyosiy mustaqilligi va ularning manfaatdor guruhlar bilan aloqasi masalalarida keng muhokamalarga sabab bo‘ldi. Tanqidchilarning fikricha, bu markazlar ko‘pincha sanoat va savdo sohalaridagi yirik donorlarning elitar siyosiy manfaatlarini ilgari surishga xizmat qilgan. Neokonservatorlar ko‘pincha “siyosat muhandislari” sifatida faoliyat yuritib, korporativ va biznes manfaatlariga mos keluvchi mafkuraviy siyosatlarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirishga intilganlar. Ularning asosiy vazifasi mavjud iqtisodiy va geosiyosiy tartibotni oqlovchi g‘oyaviy asoslarni ishlab chiqish va ommaga singdirish bo‘lgan. T.Medvetz ta’kidlaganidek, “neokonservativ tahlil markazlari ko‘pincha siyosiy marketing va mafkuraviy targ‘ibot usullaridan foydalangan holda o‘z g‘oyalarini “sotish bilan shug‘ullanadi” [4]. Shuningdek, I.Kristolning o‘zi ochiq aytganidek, neokonservatorlar “yirik korporatsiyalar manfaatlarini himoya qilish va foyda orttirishni oqlash uchun intellektual asos yaratishga xizmat qiladi”[5].

Umuman olganda, neokonservativ “aql markazlar”ning AQSh siyosiy hayotidagi o‘rni ularning yuqori intellektual salohiyati, mafkuraviy qat’iyligi hamda siyosiy jarayonlarga bevosita ta’sir ko‘rsatish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Ular demokratik qadriyatlarni ilgari surish niqobi ostida AQSh tashqi siyosatini kuch ishlatishga asoslash, geosiyosiy jihatdan muhim hududlarda

rejim almashinuvi siyosatini oqlash va AQShning global ustuvorligini saqlab qolish kabi vazifalarni amalga oshirishda markaziy rol o‘ynadi. Shu bois, neokonservativ yo‘nalishdagi “aql markazlar” zamonaviy siyosiy-tahlil institutlarning mafkuraviy quroli sifatida qaraladi. Xususan, Amerika tadbirkorlik instituti (American Enterprise Institute, AEI) – neokonservativ mafkuraning asosiy intellektual markazlaridan biri bo‘lib, Vashingtonda joylashgan. U AQShdagi eng nufuzli konservativ “aql markazlar” sirasiga kiradi. Bu Institut 1938-yilda tashkil etilgan bo‘lib, dastlab u erkin bozor tamoyillarini himoya qiluvchi iqtisodiy-tahliliy institut sifatida faoliyat boshlagan bo‘lsa-da, ayniqsa 1970-yillardan boshlab, tashqi siyosat, mudofaa strategiyasi va geosiyosat masalalarida ham faol ishtirok eta boshladi. Bugungi kunda Amerika tadbirkorlik instituti neokonservativ qarashlarning eng muhim intellektual asoslovchilaridan biri sifatida tan olingan. “Amerika tadbirkorlik instituti olimlari akademik salohiyatni siyosiy pragmatizm bilan uyg‘unlashtirishga erishgan, bu institutni konservativ siyosiy tashabbuskorlikning namunasiga aylantirgan”[6].

Amerika tadbirkorlik instituti ekspertlarining ta’kidlashicha, “AQSh kuchi faqat mudofaa uchun emas, balki xalqaro tartibni saqlab qolish va demokratiyani yoyish uchun ham zarur”[7]. Institut aynan shunday yondashuv tufayli neokonservatorlar uchun asosiy intellektual baza sifatida shakllandi. Institut tarkibida faoliyat yuritgan va hozirgacha faol bo‘lib kelayotgan yetakchi ekspertlar orasida qator muhim siyosiy shaxslar mavjud. Ulardan biri Pol Volfovits AQSh Mudofaa vazirining sobiq o‘rinbosari bo‘lib, Iroq urushining asosiy arxitektorlaridan biri hisoblanadi. Jon Bolton esa milliy xavfsizlik masalalari bo‘yicha maslahatchi sifatida kuchli tashqi aralashuv siyosatini qat’iy qo‘llab-quvvatlagan. Maykl Rubin Yaqin Sharq bo‘yicha yetakchi ekspert bo‘lib, Eron, Iroq va Suriya siyosatiga oid ko‘plab tahliliy maqolalari bilan tanilgan. D. Pletka esa tashqi siyosat va mudofaa masalalari bo‘yicha institutning vitse-prezidenti sifatida uni global xavfsizlik bo‘yicha ta’sirchan va nufuzli tahlil markaziga aylantirishda muhim rol o‘ynagan. Institutni boshqa tahlil markazlari bilan solishtirganda, tashqi siyosatda yanada globalistik va tajovuzkor pozitsiyani egallaydi.

Ushbu “aql markaz” AQShdagi siyosiy qaror qabul qiluvchi elita bilan kuchli aloqaga ega. Ayniqsa, J.Bush davrida Institut ekspertlari (xususan P.Volfovitz va R.Perl) Iroq urushiga doir siyosatni ishlab chiqishda bevosita qatnashgan. 2003-yilda Iroqga bostirib kirishdan avval Institut ko‘magida bir qator maxfiy uchrashuvlar tashkil etilgan bo‘lib, ular “post-Saddam” davrini rejalashtirishga qaratilgan edi.

Abelsonning ta’kidlashicha: “Amerika tadbirkorlik instituti o‘zining ilmiy uslubi va siyosiy doiralarga yaqinligi orqali Bush ma’muriyatining tashqi siyosiy qarorlarida g‘oyaviy platforma vazifasini bajargan”[8].

Ushbu Institut nafaqat konservativ, balki aynan neokonservativ mafkuraning asosiy tashuvchilaridan biridir. U o‘z faoliyatida ilmiy yondashuvni siyosiy lobbi bilan uyg‘unlashtirib, AQShning ichki va tashqi siyosatida hal qiluvchi ta’sirga ega bo‘lgan. Ayniqsa, 2000-yillar boshida Yaqin Sharq siyosatining shakllanishida markazning hissasi beqiyos bo‘lgan. Shu bois, uni “intellektual intervensiyachilik” konsepsiyasining amaliy mujassamlanish nuqtasi sifatida baholash mumkin.

Xulosa qilganda, neokonservativ yo‘nalishdagi “aql markazlar” Sovuq urush davrining tugashi bilan yuzaga kelgan yangi xavfsizlik tahdidlariga javoban AQShning milliy xavfsizligini mustahkamlash va global yetakchilikni saqlab qolish maqsadiha xizmat qila boshladi. Ushbu markazlar, ayniqsa 1980-1990-yillarda Sovet Ittifoqining parchalanishi va global siyosatning qayta shakllanishi jarayonida, yangi xavf-xatarlarni (terrorizm, radikal ekstremizm, avtoritar rejimlar) baholash va ularni bartaraf etish uchun agressiv, harbiy kuchga asoslangan tashqi siyosatni ilgari surishga ixtisoslashdi. Bu jarayonda ular ilmiy tadqiqotlar, siyosiy maslahatlar va hukumat bilan yaqindan hamkorlikda AQShning tashqi siyosat yo‘nalishini shakllantirishda muhim rol o‘ynadi. Ular ayniqsa 2001-yil 11-sentyabr voqealaridan keyin faoliyatini kuchaytirib, terrorizmga qarshi kurash va radikal ekstremizmni bartaraf etishga yo‘naltirilgan agressiv tashqi siyosatni ilgari surdilar.

Demak, AQShda neokonservativ yo‘nalishdagi “aql markazlar” Sovuq urush va undan keyingi davrdagi yangi xavflarga qarshi qat’iy va agressiv tashqi siyosatni shakllantirish maqsadida yuzaga kelgan. Ular milliy xavfsizlik, terrorizmga qarshi kurash va Yaqin Sharq siyosatida harbiy kuch va iqtisodiy bosim orqali AQShning global yetakchilik rolini mustahkamlashga katta ta’sir ko‘rsatadi. Bu markazlar neokonservativ mafkurani targ‘ib qilib, siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida faol ishtirok etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Hunter R. E. Think Tanks. Helping to shape U.S. Foreign and Security Policy // U.S. Foreign Policy Agenda. – 2000. – Vol. 5. – 1 March. – P. 34.

2. Pielke R.A.Jr. The Honest Broker: Making Sense of Science in Policy and Politics. – Cambridge: Cambridge University Press, 2007. – 188 p.

3. Abelson D. E. Do Think Tanks Matter? Assessing the Impact of Public Policy Institutes. – Montreal: McGill-Queen’s University Press, 2002.– P.18.

4. Medvetz T. Think Tanks in America. – Chicago: University of Chicago Press, 2012. – P.16.

5. Kristol I. Corporate Philanthropy: An Agenda for the Future // The Wall Street Journal. – March 22, 1978. – P. A22.

6. Ricci D.M. The Transformation of American Politics: The New Washington and the Rise of Think Tanks. – New Haven: Yale University Press, 1993.– P.232.

7. Kristol U., Kagan R. Present Dangers: Crisis and Opportunity in American Foreign and Defense Policy. – San Francisco: Encounter Books, 2000. – P.4.

8. Abelson D.E. A Capitol Idea: Think Tanks and U.S. Foreign Policy. McGill-Queen’s University Press, 2006. – P.113.